



GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISHDA REABILITATSIYANING O'RNI VA ROLI.

O'ralova Dinora Aliboy qizi

Termiz Davlat Pedagogika instituti talabasi.

E-mail (uralovadinora56@gmail.com)

Tel nomer: (+99899 741 35 02)

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-april 2023 yil

Ma'qullandi: 10-april 2023 yil

Nashr qilindi: 14-april 2023 yil

KEY WORDS

*Narkomaniya, Giyohvandlik,
Reabilitatsiya, profilaktika.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada mamlakatimiz hamda butun jahonda avjiga chiqib borayotgan asr-vabosi,giyohvandlikni oldini olish.Hamda uni reabilitatsiya qilish.Bu bo'yicha chora tadbirlar o'tkazish profilaktika olib borish haqida so'z boradi.

Giyohvandlik (Narkomaniya) – (yunoncha narke – karaxtlik va maniya – telbalik, jahl, shodhurramlik) narkotik va narkotik ta'sirga ega bo'lgan moddalarni iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik. Giyohvandlik giyohvand moddalarni doimo qabul qilish natijasida vujudga keladi, chunki ushbu hastalik bilan og'rikan kishining jismoniy va ruhiy holati humorini bosadigan tegishli narkotik modda iste'mol qilishga bog'liq. Narkomaniya organizmda chuqur uzgarishlarga sabab bo'ladi va uni tanazzulga olib keladi. Kasallik asta-sekin rivojlanib borib surunkali davom etadi. Narkotik moddalar dastlab hursandlik, vaqtichog'lik, hotirjamlik hissini uyg'otib,kayf qildirishi sababli iste'mol qilinib bora-bora kasallikka aylanadi. Quyidagi ikki holda narkotik moddalarga o'rganib qolish mumkin. Birinchi holdakishi o'z hohishidan tashqari, e'tiborsizligi natijasida narkotik moddalar humor qiladigan bo'lib qoladi. Bunday bangilik ko'pincha vrach buyurgan narkotik moddalarni noto'g'ri iste'mol qilish natijasida kelib chiqadi. Sal narsa ta'sir qilib, tashvish kuchayib ketadi,ba'zi kasallar og'riq,uyqusizlik,va dardning boshqa tomonlaridan qutulish maqsadida oxirini o'ylamay, vrach ko'rsatmasini ham pisand qilmay, o'zboshimchalik bilan narkotik modda dozasini oshirib qabul qilishadi.

Bunday bemorlar odatdano'z ahvollarining yaxshilanishi dori tufaylibo'layotganini sezib, uni ichishni davom ettira boshlaydilar va ko'pinch ahvollarining og'irligidan nolib vrachni aldaydilar. Bu zaylda ish tutishning oqibati yomon bo'lib, narkotik moddalarga unchalik zarurat bo'lmasa ham, uni qabul qilinaveradi, dorining esa organizmga narkotik ta'siri yanada orta boradi va natijada narkotik moddaga moyillik kuchayib, u xumor qiladigan bo'lib qoladi. Narkotik modda dozasini o'zboshimchalik bilan o'zgartirib boorish, uni tez-tez va uzoq muddat qabul qilish narkomaniyaga olib keladi. Ikkinchi hol ongli ravishda ayf qilish maqsadida narkotik moddalarga o'rganishdirnarkomaniyaga odatda o'zini tiya bilmagan, ruhan zaif, irodasi kuchsiz, birovlariga taqlid qiladigan, humorni tarqatishdan boshqa narsani bilmaydigan, o'ta hudbin kishilargina beriladi.bunday kishilar o'z mayillariga qarshi yurolmaydilar.shuning uchun ularning kayf qilishga moyilliklari kuchli bo'ladi.bangilik avj olib

ketadi. Bu kasallikka uchraganlarda hastalik juda og'ir kechib, odatda kutilmagan yomon oqibatlariga olib keladi.

Reabilitatsiya (lot. rehabilitatio — tiklash) (tibbiyotda) — organizmning buzilgan funksiyasini va bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui. Og'ir kasalliklar (miokard infarkti, insult, orqa miya shikastlanishlari, umurtqa pog'onasi va bo'g'imlarning shakli o'zgarishi bilan kechadigan kasalliklari); markaziy nerv sistemasining jiddiy zararlanishlari, ruhiy kasalliklar va boshqalarga uchragan bemorlar Ruhiy kasalliklarga ko'proq muhtoj bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazidan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarda bu ofatga qarshi kurashuvchi alohida tizim ish olib bormoqda. Sohaga oid faoliyatni davlat darajasida muvofiqlashtirish uchun idoralararo organ – Davlat komissiyasi faoliyat yuritmoqda.

Milliy qonunchilikda giyohvandlikka oid jinoyatchilikning oldini olish, bu borada huquq-tartibot idoralari hamkorligi, giyohvandlikka chalingan shaxslarni davolash va boshqa muhim masalalarning huquqiy asoslari mustahkamlangan. O'zbekiston 1995-yilda BMTning Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan va unda belgilangan vazifalarni to'la bajarib kelmoqda.

Tibbiy Ruhiy kasallik tufayli funksiyasini yo'qotgan a'zo faoliyatini qisman yoki to'liq tiklash yoki kasallangan sohadagi avj olayotgan jarayonning iloji boricha oldini olishga qaratiladi. Ruhiy bo'limi bor kasalxonalar, ilmiy tadqiqot institutlari, mahalliy kurort va sanatoriylarda Ruhiy kasallikni amalga oshirish har bir bemorning umumiy ahvolidan kelib chiqqan holda kasallikning shakli va kechishiga qarab belgilanadi.

Giyohvandlik – XXI asrning global muammolaridan biriga aylanib ulgirdi. O'rta asrlarda insoniyat hayotiga jiddiy xavf solgan vabo va o'lat kabi ofatlar, bugungi sivilizatsiya zamoniga kelib o'z o'rnini giyohvandlik illatiga bo'shatib berdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Mutaxassislar fikricha, giyohvandlik – tez tarqalish xususiyatiga ega bo'lgan og'ir kasallik bo'lib, tibbiy, ijtimoiy va huquqiy muammolar keltirib chiqarishi bilan birga, unga vaqtida e'tibor bermaslik jamiyatga katta ziyon keltirishi muqarrar. Shuning uchun «asr vabosi» nomini olgan bu baloi ofatga qarshi kurashish dolzarb ahamiyatga molik.

. Rossiyada bugungi kunda o'smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilish muammosi dahshatli nisbatlarga ega bo'ldi. Besh yil oldin, 16 yoshli narkoman klinik kamdan-kam uchraydigan kasallik edi, lekin hozir o'spirinlar tibbiy yordamga murojaat qiladigan giyohvandlarning uchdan bir qismini tashkil qiladi.

Eng yomoni shundaki, hozirgi yoshlar orasida giyohvand moddalarni iste'mol qilish odatiy holga aylangan, hatto buni urf -odat deb aytish mumkin. Ko'rinib turibdiki, hozirgi o'smirlarda giyohvand moddalarni iste'mol qilmaslik odobsiz deb hisoblanadi va zamonaviy emas. O'smirlar giyohvandligi, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda haqiqiy epidemiyaga aylangan. Rossiya Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarning 70% o'smirlar va yoshlardir. Hech bo'lmaganda bir marta o'g'il bolalarning 56 foizi va qizlarning 20 foizi giyohvand yoki toksik moddalarni qabul qilgan, o'g'il bolalarning 45 foizi va qizlarning 18 foizi ulardan foydalanishda davom etmoqda!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Sog'lom turmush tarzini olib borayotgan kishi bilib-bilmay bu ko'chaga kirib qolsa, o'zining tinch, farovon va baxtli hayotini qora zulmatga aylantirishi ayni haqiqat. Giyohvand kishi nafaqat o'ziga, balki yaqinlariga ham to'xtovsiz azob beradi.

Undan tug'ilajak farzandlar esa ota-onasining xatosi oqibatida bir umrga majruhlik qismatiga muhtalo bo'ladilar. Zero, faqat sog'lom ota-onadangina sog'lom zurriyod dunyoga keladi.

Sog'lom bola esa farovon kelajak demakdir. Ba'zan giyohvandlik qurboniga aylanib qolgan insonlarning qismatini ko'rib, ularga nisbatan nafrat, qahr va rahm tuyg'ularining uyg'onishi tabiiy.

Ularning quriyotgan daraxt misol umri evaziga ayrim qora niyatli yovuz kimsalarning hamyoni to'lmoqda. Qiyofasi odam, qilmishi zulm bo'lganlarning og'uni voyaga yetmagan yoshlar orasida tarqatib, uni iste'mol qilishga targ'ib qilayotganiga jim qarab turib bo'lmaydi, albatta.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi.

BMT Bosh Assambleyasining 1987 yil 7 dekabrda qabul qilgan rezolyutsiyasiga (№42/112). binoan har yili 26 iyunda Xalqaro giyohvandlik va bangifurushlikka qarshi kurash kuni (International Day against Drug Abuse and Illicit Trafficking) nishonlanadi. Har yitli o'tkaziladigan tadbirlarga aloxida nom beriladi. Bu yilgi shior "Avvalambor eshiting" deb nomlangan.

Tahlilchilarning fikricha, giyohvand moddalarning keng tarqalishi bir qator ijtimoiy muammolarga sabab bo'ladi. Jumladan, demografik fojealarni keltirib chiqaradi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jinoyatchilik ko'zga tashlanadi. BMTning jinoyatchilik va giyohvand moddalar ustidan nazorat boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda giyohvandlikka ruju qo'yanlar so'nggi dunyoda 300 million kishidan oshib ketdi. Eng ko'p iste'mol qilinadigan nasha ekani aytiladi.

Jahonda qayd qilinadigan o'limlarning 43ta sababidan giyohvandlik oqibatida sodir bo'ladigan o'lim 19 o'rinda turadi. Giyohvandlikka qarshi kurashda ilk bor bundan yuz yillar muqaddam hamkorlik qilina boshlandi. 1909 yilning fevral oyida 13ta davlat vakillari Osiyoda giyohvand moddalar yetishtirilishiga qarshi kurash maqsadida Shanxayda to'planishdi. O'shanda Shanxay komissiya tashkil etilgshan edi.

BMT Bosh Assambleyasining tan olishicha, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, jahonda giyohvand moddalar noqonuniy savdosi muammoligicha qolmoqda. Bu muammo hamon jiddiy tahdid sifatida ko'riladi.

Davlatimizning oqilona siyosati fuqarolar jamiyatining har tomonlama komil, sog'lom, oliyjanob fazilatlarini, yuksak tafakkuri va ma'naviyati, ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadigan

namunali jamiyat bo'lishiga qaratilgan. Mana shu xalqchil siyosatga asoslangan davlatimiz barcha turdagi giyohvandlikka qarshi izchil kurash olib bormoqda.

Giyohvand moddalar savdosi va uyushgan jinoyatchilik Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy barqarorligiga katta xavf solmoqda.

Giyohvandlik zamonaviy hayotning eng xavfli ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Har kuni giyohvandlik deb atalmish qo'rqinchli qarmoqqa minglab odamlar tushib qolmoqda.

Bugun giyohvandlik girdobiga muhtalo bo'layotganlarga qarata bir og'iz gap aytish kerak. Hayot go'zal, yashash yaxshi. Har qanday muammoni hal qilish mumkin. Shu sababli o'zingizni chohga tashlamang. Agar siz o'lim suyuqligi solingan shprintsni qo'lingizga olar ekansiz, kelajagingizni umrbod qorong'ulik qa'riga tashlashingizni unutmang. Unutmang qo'lingizga giyohvand modda berilar ekan, siz yo'q degan qat'iy so'zni ayting. Shundagina tirik qolasiz.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovni "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" kitobida Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy,iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin» Shunday ekan yoshlarimizni giyohvandlik,zo'ravonlik,diniy ekstremizm va shu kabi yomon illatlarga ularning mafkuraviy bo'shliqlari sabab bo'ladi.Bu esa biz pedagoglarning oldiga katta vazifalarni qo'yadi.Yoshlikdan bolalarni mehnat va hunar o'rganishga hamda kattalarga hurmat kichiklarga izzatda qilib tarbiyalashda va eng muhimi vattani sotmaydi vatanparvar qilib tarbiyalashda maktab ta'lim tizimida 1sinf dan 11 sinfgacha tarbiya darslarini qo'yilishi ham bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"Toshkent;2008y
- 2.Bo'ri Ziyomuhammadov va Mamarajab Tojiyev."Pedagogik texnologiya"
- 3.Sodiqova. Sh.A."Maktabgacha pedagogika"
- 4.J Xasanboyev va X.A.To'raqulov. I.Sh.Alqarov. va N.O'.Usmonov "Pedagogika"
- 5.Z.T.Nishonova,N.G.Kamilova,D.U.Abdullayev,M.X.Xolnazarov "Rivojlanish psixologiyasi va Pedagogik psixologia "Toshkent -2008y
- 6.Nodira Egamberdiyeva"Ijtimoiy pedagogika"Toshkent -2009 y
- 7.R.Mavlonova,N.Vohidova,N.Rahmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi"
- 8.L.Ya.Olyamov,A.M.Nazarov "Xulqi pishgan bolalar psixologiyasi".